


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHIKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"

 /SH. SHaripov.

2018 yil "28" 08

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil "25" 08

Ro'yhatga olindi: BD -5111700-3.05

2018 - yil "18" 08

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi	100000 -	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 -	Pedagogika
Ta'lim yo'nalishlari:	5111700 -	Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish

Toshkent-2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201-yil "25" 08 dagi 144-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Voxidova N.X.

Nizomiy nomidagi TDPU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, p.f.n.

**Taqrizchilar:** Mahkamova N.U.

I.A.Karimov nomidagi TDPU O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, p.f.n.

V. N. Sattorov

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti, Pedagogika va jismoniy madaniyati kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil "28" 08 dagi 1-sonli bayonnomasi).

## **I. O'quv fanining dolzarbligi oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Mazkur fan dasturi bakalavriat yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, tarbiyaviy ishlar metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari, tarbiyaviy ishlarda tizimlilik, tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini baholash tamoyillari, maktabda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish metodikasi, tarbiyaviy jarayonini boshqarish tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tahlil etish, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash texnologiyasi, oilaviy tarbiyaning mazmuni, an'analari, metod va vositalari, oila va maktabning o'zaro hamkorligi oilani pedagogik tomondan qo'llab-quvvatlash, madaniy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari ishini tashkil etish, sinf rahbari ishining mazmuni va metodlari, Kamolot yoshlar harakatini uyushtirish metodikasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida turli o'yinlar, tanlovlar, musobaqa va boshqa tadbirlarni tashkil etish metodikasi o'rgatadi.

Ushbu Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan tuzilgan dasturning tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan mavzular o'z mazmuni va yo'nalishiga ko'ra "Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ilmiy asoslari", "Sinf rahbari", "Jamoa va uni tashkil" kabi bo'limlar o'rin olgan. Bo'limlarda o'z ifodasini topgan mavzularni ochib berishda g'oyalar o'rtasidagi o'zaro izchillik va mantiqiylikning ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mavzularning bayonida maqsadga muvofiq ravishda Sharq mutafakkirlarining qarashlari, xalq pedagogikasi asoslaridan foydalanish barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga xizmat qiladi.

## **II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

Fanni o'qitishdan maqsad – mustaqil respublikamizda iqtisodiy, ma'naviy siyosiy madaniy rivojlanishi yo'lida buyuk ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarga chuqur mustahkam bilim berish, mutaxassislarni jahon andozlariga javob beradigan, bozor iqtisodiy sharoitda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyada belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'qidlash lozimki, har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan yuksak ma'naviyatga xos bo'lgan qirralarni: poklik, hamkorlik, birodarlik, g'amxo'rlik, sabr-qanoat, saxiylik fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – maktab hayotida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining va sinf rahbarining boshqalar bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor. U maktabda juda muhim va ma'suliyatli qiyofadir. Ma'naviyat ishlari va sinf rahbari faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir. Shu jihatdan olib qaraganda uni sinfining bosh tarbiyachisi murabbiysi deyish mumkin, u o'z sinf jamoasini tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi, o'qituvchilar bolalar tashkilotlari, ota-onalar hamda keng

jamoatchilik bilan yaqindan aloqa bog'lab, sinfdagi umumiy tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qiladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida.

Bakalavr:

- ✓ fanning asosiy maqsadi va tushunchalari;
- ✓ ta’lim tizimidagi islohotlari va barkamol insonni ma’naviy tarbiyalash masalalari;
- ✓ milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari;
- ✓ ma’naviy qadriyatlar, ta’lim–tarbiyaning omili;
- ✓ shaxs ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati;
- ✓ intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish;
- ✓ ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish haqida *bilimga*;
- ✓ jamoa, jamoani tashkil etish metodikasi;
- ✓ jamoada shaxsni tarbiyalash;
- ✓ jamoani shakllantirish metodikasi;
- ✓ jamoaning rivojlanishidagi tarbiya usullari;
- ✓ jamoa ijodiy faoliyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni *bilish va ko’nikma*;
- ✓ tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- ✓ tarbiyaviy ishlarning maqsad vaziflari va yo‘nalishlari;
- ✓ tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish;
- ✓ zamonaviy maktab direktorining vazifasi;
- ✓ maktabda to‘garak ishlarini tashkil etish;
- ✓ tarbiyaviy ishlar tizimida texnologiyalar;
- ✓ sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi;
- ✓ tarbiya texnologiyalari;
- ✓ tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish;
- ✓ tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv;
- ✓ tarbiya tizimida innovatsiyalar;
- ✓ iste’dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash;
- ✓ sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari;
- ✓ maktabda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishni tashkil qilish metodikasi;
- ✓ sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi;
- ✓ tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni;
- ✓ ma’naviy-axloqiy tarbiyada sinf rahbarining faoliyati;
- ✓ sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo‘yilgan talablar;
- ✓ maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish;
- ✓ sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari;
- ✓ o‘quvchilarni pedagogik kuzatish metodikasi;
- ✓ sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash;
- ✓ o‘quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfdan intizomni mustahkamlash;
- ✓ sinf rahbari ishini rejalashtirish;



- ✓ maktabning o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari;
- ✓ maktab, oila va mahalla hamkorligining uzviyligini ta'minlash;
- ✓ mahalla tarixi;
- ✓ tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari;
- ✓ oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni;
- ✓ oila–millat va jamiyat tayanchi;
- ✓ oila va jamiyatning inson hayotidagi o'rni;
- ✓ oila tarbiyasida ota-onaning o'rni;
- ✓ oila muhitining bola tarbiyasiga ijobiy ta'siri haqidagi *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **1-Modul. Тарбиявий ишлар методикаси фанининг ilmiy asoslari**

**1-Mavzu. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanning maqsad va vazifalari.** Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida tushuncha Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish. Xorijiy mamlakatlarda boshlang' ta'lim-tarbiya tizimi yuzasidan qisqacha izoh.

**2-Mavzu. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.** Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash haqida ma'lumot berish

**3-Mavzu Tarbiya usullari va shakillari.** Tarbiya usullarni tanlashga qo'yiladigan talablar. Tarbiya usullari haqida tushuncha. Tarbiyani tashkil etish shakillari. Tarbiya usullarini toyifalash haqida ma'lumot berish

**4-Mavzu Tarbiya жараёнини ташкил этиш shakillari.** Tarbiya жараёнини амалга оширишда инновацион технологиялардан фойдаланиш.

### **2-Modul. Sinf raxbari**

**5-mavzu. Sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.** Sinf rahbarining "Ёшлар харакати" jamoat tashkilotlarini bilan olib boradigan ishlarni o'rganish haqida ma'lumot berish.

**6-mavzu. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati.** Sinf o'quvchilar tarbiyachisi. Sinf rahbari ishining asosiy qismlari. Tarbiyaviy ish-faoliyat samardorligini oshirish shart-sharoitlari haqida ma'lumot berish

**7-mavzu. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.**

O'quvchilarni o'rganish usullari. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etish usullari. O'quvchilarning o'quv samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berish

**8-mavzu. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash.** O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirish usullari. Sinf rahbarining tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usullari. Sinf rahbarining rag'batlantirish usullari. Sinfda intizomni mustahkamlash usullari haqida ma'lumot berish

**9-mavzu. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari.** Sinf rahbarining ish faoliyatini o'rganish usullari. O'quvchi shaxsini tarbiyalash usullari. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari. Tarbiya faoliyatining maqsadlari. haqida ma'lumot berish.

**10-mavzu. Sinf rahbari ishini rejalashtirish usullari.** Sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va usullari. Sinf rahbari ishini rejalashtirish metodikasi haqida ma'lumot berish.

**11-mavzu. Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiy tushuncha.** Sinf tarbiyaviy soatlarining tarkibiy qismlari. Sinf tarbiyaviy soatlarni tashkil etish, uyuushtirish va o'tkazishning tartib va usublari. Sinf tarbiyaviy soati uchun joy tayyorlash va uning davom etish vaqti haqida ma'lumot berish.

**12-mavzu. Sinf raxbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi.** Sinf raxbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'rgatish haqida ma'lumot berish.

**13-mavzu. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.** Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berish.

**14-mavzu. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning nazariy asoslari.** Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarning o'quvchilar faoliyatidagi o'rni haqida ma'lumot berish.

**15-mavzu. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor**

**o'rinbosarining ish metodikasi.** Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor o'rinbosarining ish metodikasini o'rganish haqida ma'lumot berish.

**16-mavzu. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.** Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning umummaktab rejasini bilan bog'liqligini o'rganish. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasini bilan taishish. Sinf rahbarlari va ota-onalar komiteti hamkorligi ishini o'rganish haqida ma'lumot berish

### **3-Modul. "Jamoat va uni tashkil etish"**

**17-mavzu. Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi.**

Jamoa va uning turlari. Jamoaning bir maqsadga qaratilganligi. Jamoani tashkil etish usullari. O'quvchilar jamoasi o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish

#### **18-mavzu. Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash**

O'quvchilar jamoasini shakllantirish usullari. Sinf jamoasini tashkil etishda pedagogik talablar. Sinf faollarini aniqlash va tarbiyalash usullari haqida ma'lumot berish.

**19-mavzu. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari.** O'quv ishlarining mazmuni. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari. Maktabning o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining o'zaro darsga kirish usullari haqida ma'lumot berish.

**20-mavzu. Ота оналар билан ишлаш.** Ота-оналар мажлисларини ташкил этиш. Уларга куйиладиган дидакатик талаблар.

#### **IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Fan bo'yicha rejalashtirilgan seminar mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Seminar mashg'ulotlarda tadbirlar keng qo'llanilayotgan asosiy usullarni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ma'lum sabablariga ko'ra ma'ruzaga kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni seminar mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Seminar mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik taomiyllarga amal qilinadi:

- seminar mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatni ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- seminar mashg'ulotlarda nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

#### **Seminar mashg'ulotlariga tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda tashkilotchi shaxsiga bo'lgan talablar
2. Sinf rahbari va bolalar etakchisi
3. Sinf faollarini aniqlash
4. Ota-onalar sinf majlisini tashkil qilish metodikasi
5. Tarbiyada muomala mahorati
6. O'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati
7. Sharq mutafakkirlarining merosida oilada bolalarni ahloqiy tarbiyalash
8. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish
9. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash
10. O'quvchini rag'batlantirish usuli

11. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilimlar berish
12. Iqtisodiy tarbiya berish usullari
13. Ajdodlarimiz madaniy merosi
14. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash
15. Tarbiya jarayonida iqtisodiy tushunchalarni singdirish
16. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat
17. O'quvchilar jamoasini shakllantirish
18. Sinf rahbarining ma'naviy va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bilan olib borilgan ishlari Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi
19. Tarbiyaviy ishlarning o'quvchi tarbiyasiga ta'siri
20. Oilada bola tarbiyasi
21. Oiladagi bola tarbiyasida milliy an'analardan foydalanish
22. Tarbiyaviy ishlar orqali inson'arvarlikni tarbiyalash
23. Sinf rahbarining yuksak ma'naviy kamoloti
24. O'quvchi va o'qituvchi munosabati

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Bakalavr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
  - tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
  - maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- masofaviy ta'lim.

Bakalavr talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Mustaqil ishni tashkil etishda unga mo'ljallangan har bir bo'lim bo'yicha adabiyotlar talaba tomonidan o'rganilishi, mustaqil ish uchun mo'ljallangan nazariy va amaliy bilim mavzularini o'zlashtirish, har bir bo'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarning mos varianti talaba tomonidan bajarilishi, Powerpoint, Maple dasturlaridan foydalanib, ularni prezentatsiya ko'rinishida tayyorlab topshirishi talab qilinadi. Jarayon o'qituvchi tomonidan uzluksiz nazorat qilinadi.

#### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:**

1. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarining ahamiyati
2. Tarbiya usullari va shakllari.
3. Tarbiya usullarni tanlashga qo'yiladigan talablar
4. O'quvchilar shaxsini har tomonlama kamol toptirish
5. Tarbiya texnologiyalari
6. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish usullari
7. Tarbiya tizimiga pedagogik yondashuv
8. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish
9. Tarbiya tizimida innovatsiyalar



- 10, Tarbiya tizimida samaradorlikga erishish usullari
- 11, Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahoratning o'рни
- 12, Tarbiyada innovatsion texnologiyalarning o'рни
- 13, Jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi.
- 14, Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash
- 15, Sinf jamoasini tashkil etish va tarbiyalash
- 16, Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda sinf rahbarining pedagogik mahorati
- 17, Sinf rahbarining sinf jamosini jipislashtirishda maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.
- 18, Jamoani rivojlanishida tarbiya usullari
- 19, Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati
- 20, Jamoada shaxsni tarbiyalash
- 21, Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.
- 22, Shaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari
- 23, O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash
- 24, Shaxsning oila muhitida va jamiyatda shakllanishi
- 25, Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari
- 26, Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari
- 27, Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari
- 28, Jamoa ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'рни
- 29, Sinf rahbari ishini rejalashtirish metodikasi
- 30, Maktabni boshqarishda maktab direktorining vazifalari
- 31, Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiy tushuncha
- 32, Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning vazifalari
- 33, Sinf raxbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi
- 34, Maktabdagi to'garak ishlarini o'quvchi tarbiyasiga ta'siri
- 35, Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalar
- 36, O'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash
- 37, Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullari
- 38, Noan'anaviy tarbiyaviy soat mashg'ulotlarini tashkil etish usullari
- 39, Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasi
- 40, Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi
- 41, Sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari
- 42, Maktabda to'garak ishlarini tashkil etish
- 43, Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda sinf rahbarining o'рни
- 44, Mahalla, oila va maktab hamkorligining uzviyligini ta'minlash.
- 45, Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish usullari
- 46, Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'рни
- 47, Bayram tadbirlarini tashkil etish usullari
- 48, O'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash
- 49, Tarbiyaviy soat mashg'ulotlarini tashkil etish usullari
- 50, Ota-onalar majlisini takil qilish va o'tkazish metodikasi

### **Kurs loyahasini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

Kurs loyahasining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdir.

Kurs ishini yozish va himoya kilish yuqori malakali pedagoglar tayyorlash jarayonining muhim bosqichi bo'lib, talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash hamda kengaytirish, aniq ilmiy- pedagogik vazifalarini hal qilishda ushbu bilimlardan foydalanish maqsadlarini ko'zlaydi. Bundan tashqari, kurs ishi yozish oliy o'quv yurti talabasida mustaqil ish yuritish ko'nikmalarinn rivojlantirishga xizmat qiladi, ishlab chiqilayotgan muammo va kamchiliklarni yechishda keng izlanishlar hamda tajribalar o'tkazish imkonini beradi, hozirgi zamon ishlab chikarish, fan-texnika tarakkiyoti va kasbiy pedagogikaning rivojlanishi sharoitlarida talabaning mustaqil ishlash layokatini va tayyorgarligini oshiradi.

#### **Tavsiya etilayotgan kurs ishi mavzulari:**

1. Sinf rahbarining o'quvchilarga bo'lgan munosabatida pedagogik mahoratning ahamiyati.
2. Shaxsni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning hamkorligi.
3. Mutafakkir allomalarimiz me'rosining farzand kamolotida tutgan o'rni.
4. Sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etish.
5. Jamoani istiqbolini belgilovchi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish usullari.
6. Oila jamoasini jipslashtirish metodikasi.
7. Bola shaxsi, vazifalari.
8. Jamoada oilani boshqarish.
9. Bola tarbiyasida mahalla va maktabning roli.
10. O'quvchilarni tarbiyalashda rivoyat va hadislardan foydalanish.
11. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda tejamkorlikdan foydalanish usullari.
12. O'quvchilarni tarbiyalashda tarbiyaviy mashg'ulotlarning ahamiyati.
13. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda tejamkorlik tarbiyasi.
14. Ahloqiy tarbiyada xalq maqollaridan foydalanish.
15. Oilada va maktabda o'quvchilar shaxsini shakllantirish.
16. Tarbiyada oilaviy udumlar va an'analar.
17. Oilada ma'naviyat va marifatning tarkib to'ishi.
18. A. Temurning odob-ahloq to'g'risidagi o'gitlari.
19. Ota-ona birinchi tarbiyachi.
20. SHaxs ma'naviyatining rivojlantirish omillari va vositalari.
21. O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning roli.
22. Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida oila tarbiyasi.
23. Maktabda ma'naviyat va ma'rifat ishlarini rejalashtirish.
24. O'quvchini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.
25. Kaykavusning "Qobusnoma" asari va uning tarbiyaviy ahamiyati.
26. Tarbiyaviy ishlarni amaliyotda tadbiq etishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari.

27. Kichik maktab yoshdagi bolalarini tarbiyalashda o'zbek halq o'yinlarining ahamiyati.
28. Boshlang'ich sinfda o'quv tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishning asosiy qonun-qoidalari.
29. Allomalari asarlarida barkamol insonni tarbiyalash g'oyalari.
30. Oilada dastlabki beriladigan ma'naviy-ahloqiy tarbiya.

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.
2. Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.
3. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and education. Pearson Education Inc.
4. R.A. Mavlonova, B. Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y.
5. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodova, K. Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y
6. K. Xoshimov, S. Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi 2010-yil
7. R.A. Mavlonova, N.H. Vohidova, N.H. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
10. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son, 70-modda.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
12. R.A. Mavlonova, D. Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.: Fan va texnologiya 2012-yil
13. S. Nishonova, M. Imomova, R. Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O'qituvchi 1996-yil

- 14.M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.:O'qituvchi. 2004-yil  
15.N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi  
O'zMKNT.: 2009-yil.

#### **Internet saytlari**

- 16.<http://Ziyonet.uz>  
17.<http://edu.uz>  
18.[www.nadlib.uz](http://www.nadlib.uz)  
19.<http://teoriya.ru>